

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

Инглиз тилшунослиги кафедраси

**ПРАГМАЛИНГВИСТИКА, ФУНКЦИОНАЛ
ТАРЖИМАШУНОСЛИК ВА ТИЛ ЎРГАТИШ
ЖАРАЁНЛАРИ ИНТЕГРАЦИЯСИ**

(Филология фанлари номзоди, доцент М.Х.Алимова таваллудининг 75
йиллигига бағишланади)

**мавзусидаги халқаро миқёсидаги онлайн
илмий-назарий конференция материаллари
ТЎПЛАМИ**

2020 йил, 25 декабрь

**Бухоро "Дурдона"
2020**

(.)

МУНДАРИЖА:

<i>Alimova M.X.</i> Yetmish besh yillik hayot sarhisobi	4
<i>Жалолов Ж.Ж.</i> Юксак инсоний ва илмий масъулият соҳибаси	7
<i>Саидов С.С.</i> Ибратли олима	10
<i>Xasanova D.A.</i> Congratulations from Canada	12
<i>Haydarov A.A.</i> Mehribon ona, g'amxo'r ustoz va salohiyatli olima	13
<i>Rasulov Z.I.</i> Дуоғўй устозим	15
<i>Рахматова М.М.</i> “Инсон” деган номга муносиб устоз	16
<i>Орипова М.Ж.</i> Ibrat maktabi farishtasi	18
<i>Umurova X.X.</i> Teran nazar solibi va shijoatli qalb egasi	20
<i>Саидова М.У.</i> Чинакам ҳаёт мактаби	22
<i>Қобилова А.Б.</i> Муҳтарам устозимга дил изҳорларим	23

I-ШҶҒБА: ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИҚДА КОГНИТОЛОГИЯ ВА ЛИНГВОМАДАНИЯТ

<i>Жўраева М.М.</i> Тилшуносликда модаллик категорияси илмий-назарий асосларининг ёритилиши	24
<i>Хайдаров А.А.</i> Сўз маънолари кучайтиришнинг фонетик, лексик ҳамда морфологик сатҳда ифодаланиши	30
<i>Расулов З.И.</i> Тил тежамкорлиги сифатида назарияси шаклланишидамулоқот эҳтиёжининг роли	34
<i>Gadoeva M.I.</i> Contextual analysis of somatic phraseological units with “head”/“bosh” in the Uzbek language	35
<i>Khodjaeva D.I., Saidova Z.T.</i> Taxis - Relative Time – Evidentiality	38
<i>Qosimova N.F., Sayliyeva M.R.</i> “Gone with the wind” asaridagi frazeologizmlarning semantik-pragmatik xususiyatlari	43
<i>Rahmatova M.M., Inoyatova D.I.</i> Abdulla Qodiriyning “O'tgan kunlar” asarida “xumuklik” konseptining lisoniy xususiyatlari	46
<i>Рахматова М.М.</i> Эстетик баҳо ва унинг аксиологик ифодаси	50
<i>Ахмедова М.Б.</i> Инглиз тилидаги «spirituality» мазмуний айдоми таркиби	54
<i>Базарбаева А.М.</i> Когнитивная метонимия как периферийный уровень вербализации концепта	61
<i>Базарбаева А.М.</i> Дискурсивный анализ «концептуальной метонимии»	64
<i>Вахидова Ф.С., Хусенова Э.</i> Закон синергии на примере метода образования слов путем сложения двух или более слов	70
<i>Вахидова Ф.С.</i> Словообразование – как источник обогащения активного и пассивного словарного запаса	73
<i>Орипова К.Э., Қўдратова Ш.А.</i> Прагмалингвистиканинг назарий асослари	77

Энг фаол префикслар сифатида *super-*, *over-*, *out-* ларни кўрсатиш мумкин. Морфологик сатҳдаги маъно кучайтиришни префикслар, суффикслар, постпозитивлар ёрдамида ифодалаш мумкин.

Умуман олганда, морфологик усулда сўз маъносини кучайтиришнинг жиддий ўрганилиши сўз ва сўз шакли семантик структурасидаги очилмаган кирраларни намоён этишда жуда катта аҳамиятга эгадир.

Лексик сатҳда маъно кучайтириш равишлар, кучайтирувчи сифатлар, квантор сўзлар, кучайтирувчи фразеологик бирликлар, сифат ва феълларнинг синонимик катори ҳамда алоҳида сўзлар ёрдамида ифодаланади.

Ҳаракат ва ҳолат маъносини кучайтиришни синонимия усулидан фойдаланиб амалга ошириш мумкин.

Масалан: Pour or pour down – to rain very hard. The thunder and lightening stopped but it continued **to pour**.

Лексик сатҳда интенсивликни ифодалашда *jolly*, *pretty*, *dead*, *badly* каби лексемалардан ҳам фойдаланиш мумкин, улар кўп ҳолларда *very* сўзи ўрнида қўлланади.

Масалан: I'll do everything whatever I jolly well want to!

Хулоса қилинганда, интенсивлик семантик категория бўлиб, умумлисоний ҳодиса сифатида сўз семантикасининг келиб чиқишига сабаб бўлади. Бошқача айтганда, интенсивлик экспрессивлик микдорининг ўлчамини белгилайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. -Т.: Фан, 1983. -88б.
2. Абдуллаев А. Ҳозирги ўзбек тилида маъно кучайтиришнинг фонетик ва морфологик усули. Фил. фан. номз. дисс. -Т.: 1970. -122б.
3. Йўлдошев М. Бадний матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. -Т.: Фан, 2007.
4. Солихўжаева С. Эмоционалликни ифодаловчи воситалар. Тошкент, ЎТА, 1978, №5. -44-46 б.
5. Зияев А. Инглиз тилида сўз маъноларини кучайтиришнинг когнитив талқини. “Фарғона” нашриёти, 2011, -19-21 б.

TIL TEJAMKORLIGI NAZARIYASI SHAKLLANISHIDA MULOQOT ENTIYOJINING ROLI

Z.I.Rasulov,
dotsent, filologiya fanlari nomzodi (BuxDU)

Bugungi kunda tobora ko'proq dunyoning lisoniy panoramasini taqdim etishga qaratilgan zamonaviy umumiy tilshunoslikning dolzarb muammolaridan

biri - fundamental tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirishning tarixiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat (Sh.Safarov, 2006, B. 3-6). Bunda tilshunoslikning turli milliy maktablarida o'rnatilgan an'analarni hisobga olgan holda, lingvistik tafakkurni shakllantirish tarixidagi eng katta yutuqlarni diqqat bilan tahlil qilish muhim ahamiyatga ega: "Tilshunoslik tarixini o'rganishda quyidagilarni inobatga olish zarur: 1) tilshunoslik tarixini umumiy fan tarixining bir qismi sifatida ko'rib chiqish; 2) lingvistik nazariyalarning boshqa ilmiy fanlar bilan o'zaro munosabatlariga ahamiyat qaratish; 3) nazariyalarning uzluksizligini, yangi vazifalarni belgilashga sabab bo'lgan omillarni aniqlash; 4) haqiqatga mos kelmaydigan ba'zi keng tarqalgan g'oyalarga qarshi tura olish. Bundan tashqari, tilshunoslik tarixi g'oyalar tarixining ajralmas qismi va g'oyalar mafkuraning ifodasi sifatida qaralishi kerak. Muayyan ilmiy nazariyaning shakllanishiga ta'sir qiluvchi geterogen omillar hisobga olinishi lozim (jamiyatning amaliy ehtiyojlari, ijtimoiy jihatdan shartli mafkuraviy sharoitlar, muayyan ilmiy omillar va boshqalar)" (A. Bushuy, 2005, B.6).

Tillarni kuzatar ekanmiz ularda fonetik o'zgarishlarning sababi sifatida qaralishi mumkin bo'lgan talaffuzning "qulayligi" uchun barqaror tendentsiya mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga, ularning ishlatilishida barqaror bo'lgan tovushlar va bo'g'inlar (ya'ni, boshqa qisqarmaydigan) muayyan qiymatlarni tashuvchilar sifatida qabul qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, talaffuzning "qulayligi" til vositasidagi turli muloqot shakllarida tovush o'zgarishiga sabab bo'luvchi asosiy kuchdir. Ushbu hodisa tilni soddalashtirishga, rivojlanish jarayonida murakkabdan oddiylik tomon harakat qilishni anglatadi. Bu, birinchi navbatda, uzun so'zlarni qisqa so'zlarga aylantirganda kuzatilishi mumkin. Masalan, *wetellen* → *wetell* ("biz gapiramiz"). Bunday jarayon soddalashtirish tizimi domiga turli xil til faktlarini qamrab olgan holda tezlashishi mumkin. Bunday tejash tamoyili odatda nafaqat miqdoriy (faqattalaffuzharakatlariningko'payishiyokikamayishi), balki insonning aqliy qobiliyatini tejash bilan chambarchas bog'liq. Bu borada A.M.Bushuy (2005, p.77) shunday qayd etadi: "Tilda hamma narsa o'zgarishga yuz tutadi. Til har doim o'zgarib turadi, biroq ayni paytda u juda barqaror. Boshqachaqilibaytganda, harqandaytarixiyvaqtdatildoimiyva ayni paytda o'tkinchi narsadir. Har bir inson to'xtovsiz tilga ta'sir qiladi. Xuddi shuningdek har bir avlod ham unga o'z ta'sirini o'tkazadi – bu jarayon tilning bazaviy leksik fondida va grammatik shakllar materialida aks etmasa-da, ularning muloqot nutqi tabiatida – albatta ifodalanadi. Demak-ki, til doimiy ijodiy jarayon, doimiy yaratuvchilik faoliyati bo'lib, u ovozli materiyani fikrning ifodasiga aylantiradi".

Tejamkorlik tamoyili muammosiga tilshunoslik ilmda birinchilardan bo'lib H. Paul (1846-1921) yosh grammatikachilar yo'nalishi vakillarining nazariy qarashlarini (1960, 372) ifodalar ekan o'z e'tiborini qaratdi. Shunisi ahamiyatliki, XIX asrning ushbu "lingvistik katexizisida"– "tejamkorlik tamoyili" deb nomlanuvchi maxsus bo'lim mavjud. Unda H. Pol tilda tejash haqida gapirar ekan mazkur qonuniyatning nutqiy muloqot ehtiyoji - "Sparsamkeit im Ausdruck"(="ifoda tejamkorligi") asosida yuzaga kelishi haqida gapiradi. (H. Paul, 1960, B.357). Bundan tashqari, tilshunos tilning boshqa tendentsiyasini –

muayyan elementlarning ortiqchaligini ko'rsatib o'tadi: "Fikrlarni ifodalash uchun til vositalarining ko'proq yoki kamroq tejalishi aynan ehtiyojlarga bog'liq. Garchi lingvistik vositalar ko'pincha keraksiz holda, isrofgarchilik bilan ishlatilishini inkor etib bo'lmaydi. Umuman olganda, til faoliyati uchun muayyan tejamkorlik tendentsiyasi mavjud" (1960, B. 372).

Tilning evolyutsiyasi muammosini va nutq harakatlarini tejash bilan bog'liq masalalarni hal qilishda sezilarli darajada keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borgan XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida yashab ijod qilgan eng yirik tilshunoslardan yana biri sifatida Otto Yespersen (1860-1943) nomi tilga olinadi.

Tilning rivojlanishini tizim sifatida o'rgangan O. Yespersen (1958) quyidagilarni ta'kidlaydi: tilning evolyutsiyasi ba'zi til normalari va shakl hosil qilish turlari yo'qolib borishi va boshqalari paydo bo'lishi bilan namoyon bo'ladi, ayni paytda tilda bunday dinamik jarayonni tartibga soluvchi va boshqaruvchi barqaror tendentsiyalar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Сафаров Ш. Когнитивтилшунослик. — Жиззах: «Сангзор», 2006. — 92 б.
2. Бушуй А.М. Язык и действительность. — Ташкент: Фан, 2005. — 144 с.
3. Пауль Г. Принципы истории языка. — М.: Изд-во иностр. лит., 1960. — 500 с.
4. Есперсен О. Философия грамматики. — М.: Изд-во иностр. лит., 1958. — 404 с.

CONTEXTUAL ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGICAL UNITS WITH “HEAD”/“BOSH” IN THE UZBEK LANGUAGE

*M.I.Gadoeva,
docent, candidate of philological sciences (BSU)*

Annotatsiya: Ushbu maqola o'zbek tilidagi "head" / "bosh" so'zi qatnashgan somatik frazeologik birliklarning kontekstli tahlillariga bag'ishlangan. Somatik frazeologik birliklarni "head" / "bosh" so'zi bilan mukammal tahlil qilish uchun frazeologik birliklarning strukturaviy haqiqiy ma'nosining o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan.

Annotation: This article devoted to the contextual analyses of somatic phraseological units with the concept of “head”/“bosh” in the Uzbek language. For the perfect analysis of somatic phraseological units with “head”/“bosh” the structural real meaning of phraseological units, peculiarities of their pragmatic organization are defined.

Аннотация: Данная статья посвящена контекстуальному анализу соматических фразеологизмов с понятиями «head»/«голова» и «eye»/«глаза» в узбекском языке. Для точного анализа соматических фразеологизмов с понятием «head» / «голова» определены структурно-реальное значение фразеологизмов, особенности их прагматической организации.

Kalit so'zlar: somatik frazeologik birliklar, somatizmalar, o'zbekcha, bosh.